



UO'K: 582:581.93:502.75(575.1)

Gulirano TEMIROVA,
O'zMU Ekologiya fakulteti tayanch doktoranti
E-mail: guliranotemirova@gmail.com

Rusanov nomidagi Toshkent Botanika bog'i katta ilmiy xodimi, b.f.n X. Mirzakarimova taqrizi asosida

FAMILY CLASSIFICATION OF POACEAE BARNH. IT IS DISTRIBUTED IN THE URBAN FLORA OF TASHKENT CITY

Annotation

Poaceae Barnh. The representatives of the family are widespread in the urbanized areas of our country, and the results of the research conducted in our country and other countries were analyzed and studied according to the literature. Despite the fact that a number of scientific articles, scientific journals, theses are published in this regard in our country, there is almost no information on the complete taxonomy of the Poaceae family distributed in the urban flora of Tashkent, and on its distribution throughout the city.

Key words: urbanoflora, ecotope, Poaceae, species, flora, cosmopolitan, plant communities.

СЕМЕЙНАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ РОСЕСЕАЕ BARNH. РАСПРОСТРАНЕН В ГОРОДСКОЙ ФЛОРЕ ГОРОДА ТАШКЕНТА

Аннотация

Мятликовые Барн. представители семейства широко распространены в урбанизированных районах нашей страны, а результаты исследований, проводимых в нашей стране и других странах, проанализированы и изучены по данным литературы. Несмотря на то, что в нашей стране по этому поводу опубликован ряд научных статей, научных журналов, диссертаций, сведений о полной таксономии семейства Poaceae, распространенного в городской флоре Ташкента, и о его распространении на всей территории город Ташкента практически нет.

Ключевые слова: урбанофлора, экотоп, Poaceae, виды, флора, космополиты, растительные сообщества.

TOSHKENT SHAHRI URBANOFLORASIDA TARQALGAN POACEAE BARNH. OILASINING TASNIFI

Annotatsiya

Poaceae Barnh. Oilasi vakillari yurtimizda urbanizatsiya joylarida keng tarqalgan bo'lib, bu bo'yicha yurtimizda va boshqa mamlakatlarda olib borilgan tadqiqot natijalari adabiyotlari bo'yicha tahlil qilindi va o'rganilib chiqildi. Bu borada yurtimizda bir qancha ilmiy maqolalar, ilmiy jurnallar, tezislar chop etilishiga qaramasdan Toshkent shahri urbanoflorasida tarqalgan Poaceae oilasining to'liq taksonomiyasi, shahar bo'ylab tarqalishi bo'yicha ma'lumotlar deyarli kam.

Kalit so'zlar: urbanoflora, ekotop, Poaceae, tur, flora, kosmopolit, o'simlik jamoalari.

Kirish. Keyingi yillar davomida kishilarning xo'jalik faoliyati kun sayin ortib borib, yer kurrasi yashil qoplarning tarkibi va tuzilishiga katta salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayrim xolatlarda ro'y berayotgan o'zgarishlar bir tomonlama yo'nalishga ega bo'lib, flora va o'simliklar qoplamida tiklab bo'lmas darajada iz qoldirib kelmoqda. Bu o'z navbatida biologik xilma-xillikni mahalliy va global darajada asta sekin inqirozga uchrashiga birinchi sabablardan biri bo'lib qolmoqda. Antropogen omillarning o'simlik jamoalariga ta'sirini o'rganish kelib chiqishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarining darajasini minimallashtirish yo'larini ko'rsatishi mumkin. Quyidagi urbanofloraga bag'ishlangan tadqiqotlarga to'xtalib o'tamiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. 2011 yilda Yu.A. Postarnak, S.A. Litvinskaya tomonidan Rossiya Federatsiyasining Krasnodar shahri urbanoflorasini ustida tadqiqot ishlari olib borilgan. Olib byuorilgan izlanishlarda mazkur shahar urbanoflorasi tarkibida 76 oila, 303 turkumga mansub 713 tur ro'yxatga olingan bo'lib, shulardan Poaceae oilasining vakillari 60 tur bilan umumiy floraninsh 8,46% tashkil kilishi keltirilgan, shu bilan birga polimorf oilalar qatorida keltirilgan. Yevropa olimlari Yuritsina N.A., Vasukov V.M., Saksonov S.V., Keller S.A Janubiy-Sharqiy Yevropada sho'rlangan ekotoplar jamoalarida Poaceae Barnh. oilasining 2 ta begona turlariga izoh berib o'tgan. Kozhamzharova A.S., Kozhamzharova L.S., Yesimseitova Z.B. maqolalarida Poaceae oilasi ayrim vakillarining anatomik tuzilishlari, shu jumladan, to'qimalarning yaxshi o'tkazuvchanligi, sklerenxima va parenxima poyalarda joylashishi bo'yicha tushunchalar berib o'tgan. Qozog'iston florasida bo'yicha Alimbayeva A.M. o'zining maqolasida Shimoliy Qozog'iston florasidagi Poaceae Barnh. oilasi florasida tahlili ya'ni, turli tabiiy ekotizimlarda o'simlik turlarining tarqalishi va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar keltirib o'tgan. A.Chaudxari, B.Singx o'zining maqolasida Poaceae oilasini Afrika va Janubiy Amerikaning tog'larida Phalaris minor va Phalaris paradoxa turlarining ko'payishi, tarqalishi va ekologiyasini o'rganib chiqilgan. Markaziy Osiyo olimlari A.J. Ibragimov, & M.A. Abdimo'minova. (2021) larning maqolasida qayd etilishicha Kuhitang tizmasi florasida Poaceae oilasining hayotiy shakillari va hududlar bo'yicha tarqalishini o'rganish jarayonida 37 avlodga mansub 59 turlarni aniqlangan.

Hindiston olimlarining (Shailja Tripathi Priyanka Agnihotri, Shubham Jaisval) tadqiqotlariga ko'ra, G'arbiy Himoloy shtatlarida Poaceae oilasining fitogeografik bahosi butun dunyo bo'ylab topilgan taksonlarning 5,06 foizi mintaqada ko'p bo'lganligini aniqlangan. Umuman olganda, oilaning 143 avlodi va 29 qabilasiga mansub 582 tur uch shtatda keng tarqalgan. Mintaqada topilgan turlar, oilaning 61 taksoni IUCN qizil ro'yxatiga kiritilgan. Shuning uchun tabiatni muhofaza qilish maqsadlari uchun ustuvor hisoblanadi deya ta'kidlangan. Yuritsina N.A., Vasukov V.M. ning "Janubi-Sharqiy Evropadagi sho'r ekotoplar jamoalarida Poaceae Barnhart oilasining begona turlari" maqolasida yozilishicha, oilaning faqat ikkita kosmopolit

begona a'zolari - *Echinochloa crus-galli* (L.) P. Beauv. (Janubiy Osiyo kelib chiqishi arxeofit, ksenofit, epikofit) va *Setaria pumila* (Poir.) Roem. va Shult. (Sharqiy Osiyodan kelib chiqqan arxeofit, ksenofit, epikofit) - bu mintaqada ko'rsatilgan turdagi ekotoplar bo'yicha ro'yxatga olingan va sintaksonomik (pastki birliklar soni) va geografik jihatdan (Volga va Volga-Axtuba tekisligining janubida mintaqasida) juda kam. Tuzli yashash joylari *Echinochloa crus-galli* tomonidan faol ko'payib, ular ba'zi jamoalarda ham doimiy, ham keng tarqalgan tur bo'lishi mumkin, ammo shu bilan bir qatorda faqat individual senozlarning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ikkala tur ham sho'rlanishning butun diapazonidagi (ham zaif, ham kuchli sho'rangan) tuproqlarda keng tarqalgan uyushmalar jamoalarida uchraydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Yuqori sho'rangan tuproqlardagi uyushmalar bilan solishtirganda, ular ozgina sho'rangan tuproqli joylarda (*Echinochloa crus-galli*) ham ko'proq. O'rta Volga mintaqasining o'rmon-dasht zonasi florasidagi eng kattalaridan biri bo'lgan (Poaceae oilasi) haqida umumiy ma'lumot berilgan. Oila 225 turdan iborat bo'lib, ulardan 35 tasi himoyalangan va 71 tasi tasodifiy. Har bir tur uchun mintaqaning ma'muriy sub'ektlarida paydo bo'lishi ko'rsatilgan (Gorchakova A.Yu.). Zaynullina K.S., Mixivich J.E.larning tadqiqotlariga ko'ra, Poaceae oilasining 32 turining ekologik va biologik xususiyatlarini uzoq muddatli (2010-2019) o'rganish natijalari keltirilgan.

Tahlil va natijalar. Rivojlanish tezligiga ko'ra o'simliklarning uch guruhga ajratgan: 16 tur erta o'simliklarga, vegetatsiya davri 60-75 kunga, 9 turga (76-92 kun) va 7 turga ajratilgan (kech 95 kundan ortiq). Ekish vaqtida turlarning introduksiyaga chidamliligi va reproduktiv qobiliyatining qiyosiy bahosi berilgan va shimoliy landshaft dizaynida foydalanish uchun istiqbolli manzarali boshqoqli o'simliklar (12 tur) aniqlangan. Shimoliy Qozog'iston florasidagi Poaceae Barnhart oilasi turli xil tabiiy zonalar uchun o'simlik turlarining ekologik-kenotik spektrlari, turlarning namlikka nisbatan tarqalishi, shuningdek, Poaceae oilasiga mansub o'simliklarning kurtak hosil bo'lish xususiyatiga ko'ra tarqalishi aniqlangan (Alimbaeva A.M., Sultangazina G.Zh.). Yurtimizda ham shaxarsozlik, ko'kalamzorlashtirish va ulardagi manzarali o'simlik turlari ustida maqsadli tadqiqotlar olib borilgan. Ko'kalamzorlashtirishda qo'llaniladigan manzarali daraxtlar va butalar turlarini kengaytirish, o'lkamiz sharoitlariga moslasha oladigan nav va shakllarini izlab topish, ilmiy darajada asoslangan texnologiya bo'yicha parvarishlashni tadbiq etish-bugungi kunning dolzarb masalalaridan sanaladi.

Xulosa va takliflar. Mazkur soha oldidagi vazifalarni yechishda, avvalo, o'simlik turlarini ko'paytirishda va ko'chatxonalarda yetishtiriladigan mahsulotlar sifatini yaxshilashda hozirda mavjud bo'lgan o'simliklarning boy dendrologik fondidan foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lsa, ularni vatani, kelib chiqish markazi turning nomi bundanda ahamiyatli hisoblanadi. Hozirda Toshkent shahriga xar xil maqsadlarda turli yo'llar bilan olib kelingan manzarali o'simliklarning inventarizatsiya qilish (ro'yxatga olish) ishlari amalga oshirilmagan, sababi asosiy sabalaridan biri sifatida mazkur sohada kadrlarning yetishmasligi bo'lsa, ikkinchi tomondan bu turlarni aniqlashga extiyoj sezilmagan. Keltirilgan o'simliklarni spireya, jimolost, jasmin, nastarin (siren), deysiya, kizilnik, tamarikslar, forzitsiyalar, biryuchina, sariq akatsiya, zarg'aldoq (zoliststaya) smrodina mahalliy nomlar bilan atab kelingan. Mazkur turlarning ilmiy nomlarini ham bilish ham zarar qilmaydi. Turkiston o'lkasi ma'muriyati shaharlarni ko'kalamzorlashtirishga kirishib, chet mamlakatlardan ko'rkam daraxt va butalarni tabiiy va madaniy holda bu yerlarda uchramaydigan chiroyli gulli, doimiy yashil ko'rkam o'simliklarning urug' va ko'chatlarini olib kelib ekish boshlangan. O'zbekiston hududiga (Samarqand) ilk bor manzarali o'simliklar 1894 yilda keltirilgan bo'lib, ularning soni daraxt va butalari bilan birga 17 turdan iborat ekanligi to'g'risida adabiyotlarda keltirilgan. Undan so'ng manzarali daraxt va butalar Buxoro, Namangan, Andijon va Farg'ona viloyatlariga ham keltirilgan va u yerlarda mahsus pitomniklar tashkil etilgan. Bulardan, Namanganda maxsus ko'chat yetishtiruvchi institut, Denov tumanida virgin archasi, eldor qarag'ayi, kedr, Qirm sasnasi va shu kabi manzarali daraxt va butalar ko'paytirilgan. Farg'ona viloyatida ko'p tarqalgan *Poa bulbosa* L. bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, *Poa* L. (Poaceae Barnhart) oilaning eng katta toifalaridan biridir. *Poa bulbosa* L. o'simliklari, uning tarqalishi va xossalari haqida keng tushuncha berilgan. Ushbu konspektda berilgan turning turlari, morfologiyasi, sinonimlari, hayot shakli, fenologiyasi, ekologiyasi, ekologiyesi, umumiy tarqalishi va ma'nosi haqida ma'lumotlar berilgan, ishonchli ma'lumotlar berilgan.(Abdullayev Sh.S., Batoshov A.R).

Xulosa qilib aytganda, Poaceae Barhn. Oilasi vakillari yurtimizda urbanizatsiya joylarida keng tarqalgan bo'lib, bu bo'yicha yurtimizda va boshqa mamlakatlarda olib borilgan tadqiqot natijalari adabiyotlari bo'yicha tahlil qilindi va o'rganilib chiqildi. Bu borada yurtimizda bir qancha ilmiy maqolalar, ilmiy jurnallar, tezislar chop etilishiga qaramasdan Toshkent shahri urbanoflorasida tarqalgan Poaceae oilasining to'liq taksonomiyasi, shahar bo'ylab tarqalishi bo'yicha ma'lumotlar deyarli kam. So'ngi yillarda o'simlik olamining kamayib borayotganini yoki yo'qolib ketayotganini ko'rishimiz mumkin. Bunga asosiy sabab, yurtimizda tobora rivojlanib borayotgan shaharsozlik, texnika-texnologiyalar o'simlik va hayvonot olamiga o'simlik va hayvonot olamiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Shu sababli, Poaceae oilasi ayrim vakillarini Toshkent shahri urbanoflorasi bo'ylab tarqalishini o'rganish, ularning biekologiyasi va xususiyatlarini o'rganish ularni ko'paytirish va madaniylashtirish yo'llarini ishlab chiqish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Abdimominova Maftuna Alisher. Termiz davlat universiteti Tabiiy fanlar fakulteti biologiya bo'limi talabasi, O'zbekiston, Email id: abdimuminovam@mail.ru (2022-yil)
2. A.J. Ibragimov, & M.A. Abdimuminova. (2021). Analysis Of Life Forms And Vertical Regions Of Poaceae Family In The Flora Of The Kuhitang Ridge. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 2, 154-156. Retrieved from <https://zienjournals.com/index.php/tjm/article/view/215>
3. Edson-Chaves, B., da Silva, O.L.M., Klark, L.G. va boshqalar. Poaceadagi Ligule: tarixiy va evolyutsion sharh. Bot. Rev. (2022). <https://doi.org/10.1007/s12229-022-09285-3>
4. Kudrevatykh, I.Y., Kalinin, P.I. & Alekseev, A.O. Biogenic Accumulation of Chemical Elements by Plants of Genus Poaceae Barnhart and Genus Artemisia L. in the Dry Steppe and Semidesert Zones of the South of the Russian Plain. Contemp. Probl. Ecol. 12, 377-385 (2019). <https://doi.org/10.1134/S1995425519040061>
5. Nazish, M.; Althobaiti, A.T. Palyno-Morphological Characteristics as a Systematic Approach in the Identification of Halophytic Poaceae Species from a Saline Environment. Plants 2022, 11, 2618. <https://doi.org/10.3390/plants11192618>
6. Лапин А.М. Определитель растений Ташкентского оазиса: практическое пособие / А.М. Лапин; ред. А.И. Введенский. – Ташкент: Государственное издательство УзССР, 1938. – Ч. 1. – 342 с.
7. Определитель растений Средней Азии. Критический конспект флоры. В XI. – Ташкент “Фан”, 2016. – 351 с

8. Тахтаджян А.Л. Происхождение и расселение цветковых растений. – Л.: Наука, 1970. – 192 с.
9. The International Plant Names Index and World Checklist of Selected Plant Families 2020. Published on the Internet at <http://www.ipni.org> and <http://apps.kew.org/wcsp/>
10. <http://floruz.uz>
11. <https://plant.depo.msu.ru>
12. www.plantarium.ru
13. <http://powo.science.kew.org/>